FARG’ONA VODIYSIDA HUNARMANDCHILIK TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIY IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Mo’minova Mubinaxon Yoqubjon qizi
Andijon Davlat Universiteti Magistranti

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.24458414

Annotatsiya*: Maqolada Farg’ona vodiysida hunarmandchilik turizmini hududiy va iqtisodiy rivojlanish bilan bog’liq imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi hunarmandchilikka asoslangan turistik xizmatlarning iqtisodiy samarasini baholash uchun konseptual yondashuv va amaliy ko’rsatkichlar tizimini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda ochiq statistik ma’lumotlar,ilmiy adabiyotlar va xalqaro madaniy meros manbaalari tahlili, hududiy –siyosiy yondashuvlar hamda mantiqiy modellashtirish qo’llaniladi.*

Kalit so’zlar: *hunarmanchilik turizmi,hududiy iqtisodiyot, iqtisodiy samaradorlik, turistik xizmatlar,qo’shimcha qiymat,Farg’ona vodiysi,hududiy brend,turistik mashrut.*

ASSESING THE REGIONAL EFFECTIVENESS OF DEVELOPING CRAFT TOURISM IN THE FERGANA VALLEY

Abstract: *This article examines opportunities to connect craft tourism with regional economic development in the Fergana Valley. The study aims to propose a conceptual approach and a set of practical indicators for assessing the economic contribution of tourism services based on traditional crafts. The research applies desk-based analysis of public statistics, academic literature and international cultural-heritage sources, alongside regional comparison and conceptual modelling.*

Keywords: *craft tourism, regional economy, economic effectiveness, tourism services, value added, Fergana Valley, destination branding, tourist route.*

ОЦЕНКА РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ РАЗВИТИЯ РЕМЕСЛЕННОГО ТУРИЗМА В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ

Аннотация: *В статье рассматриваются возможности интеграции ремесленного туризма с региональным экономическим развитием Ферганской долины. Цель исследования — предложить концептуальный подход и систему практических показателей для оценки экономического эффекта туристских услуг, основанных на традиционных ремёслах. Использованы анализ открытых статистических данных, научной литературы и международных источников по культурному наследию, сравнительный региональный анализ и концептуальное моделирование.*

Ключевые слова: *ремесленный туризм, региональная экономика, экономическая эффективность, туристские услуги, добавленная стоимость, Ферганская долина, территориальный бренд, туристский маршрут.*

© Turon universiteti Andijon filiali | Iqtisodiyot va moliya kafedrasi
© “Smart Quill Publishing” nashriyoti | Smartquillpublishing.uz

KIRISH. Bugungi kunda turizm jahon iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri sifatida hududlarning iqtisodiy faolligini oshirish, yangi ish o’rinlarini yaratish, tadbirkorlikni rivojlantirish va milliy madaniy merosni xalqaro miqyosda targ’ib qilishda kata ahamiyat kasb etmoqda. Turizmning hududiy iqtisodiyotga ta‘siri faqat turistlar soni bilan emas,balki ularning safar davomida qanday xizmatlardan foydalanishi xarajatlarning mahalliy iqtisodiyotda qay darajada qolishi va turizm bilan bog’liq kichik bizneslar qanday aloqalar shakllanishi bilan ham belgilanadi.Shu nuqtayi nazardan an’anaviy hunarmandchilik turistik mahsulotning qo’shimcha elementi emas,balki mustaqil tajriba xizmat va xarid faoliayatini birlashtiruvchi iqtisodiy resurs sifatida ko’rilishi mumkin.

Farg’ona vodiysida, kulolchilik, yog’och o’ymakorligi, kashtachilik atlas-adras to’qimachiligi va boshqa an’anaviy amaliy san’at yo’nalishlari bilan ajralib turadi. Marg’londagi atlas-adras tayyorlash an’analari UNESCOning nomoddiy madaniy merosnij muhofaza qilish bo’yicha yaxshi tajribalar restiriga kiritilgan tashabbuslardan biri bilan bog’liq. Bu kabi meros obyektlari sayyohlik tashrifini ustaxona tajribasi,mahorat darsi,mahsulot xaridi va mahalliy hikoyalar bilan boyitish imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Farg’ona vodiysida hunarmandchilikni rivojlantirishga yo’naltirilgan ilmiy tadqiqotlarni o’rganish mavjud imkoniyat va muammolarni tahlil qilish hamda uning hududiy iqtisodiyotga ta’sirini baholash mezonlarini belgilash imkonini beradi.

O.Boyturayev va H.Yoqubjonova tomonidan Farg’ona vodiysida hunarmandchilik turizimini rivojlantrishga bag’ishlangan tadqiqotda uashbbu yo’nalishning ustuvor jihatlari va hududiy imkoniyatlari ko’rib chiqilgan[1][8]. Ushbu yondashuv Farg’ona vodiysida hunarmandchilik turizmini mahsulot sifatida emas, balki hududiy turistik xizmatlar tizimining tarkibiy qismi sifatida rivojlantitish zarurligini ko’rsatadi.

Hunarmandchilik turizmining madaniy merosni saqlash bilan bog’liq jihatlari UNESCO materiallarida ham yoritilgan[2][9]. Xususan, Marg’ilon hunarmandchilikni rivojlantirish markazining atlas adras ishlab chiqarish an’analarini muhofaza qilish bo’yicha tajribasi milliy hunarmanchilikni saqlas, ustoz-shogird an’analarini davom ettirish va mahalliy hamjamiyat ishtirokini kengaytirish nuqatyi nazaridan ahamiyatlidir.

Xalqaro metodik manbaalarda, jumladan BMT turizm tashkiloti hamda BMT Statistika bo’limi tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalarda turizm faoliyatini statistik jihatdan o’lchash, tashrif buyuruvchilar xarajatlarini hisobga olish va turizmning iqtisodiy ta’sirini baholash

1. Boyturayev O. va Yoqubjonova H. — Farg‘ona vodiysida hunarmandchilik turizmini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy maqola (PDF). https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/48_Boyturayev_Yoqubjonova.pdf

[9] UNESCO — Marg‘ilon atlas va adras hunarmandchiligi, hunarmandlar va an’anaviy ishlab chiqarish tajribasi. https://ich.uz/en/ich-of-uzbekistan/elements-included/498-mcdc

© Turon universiteti Andijon filiali | Iqtisodiyot va moliya kafedrasi
© “Smart Quill Publishing” nashriyoti | Smartquillpublishing.uz

masalalariga alohida e’tibor qaratiladi[3[10]]. Ushbu metodik yondashuvlardan hunarmandchilik turizmining iqtisodiy samaradorligini aniqlashda foydalanish mumkin. Bunda tashrif buyuruvchilar soni, bir turistning o’rtacha xarajati, yaratilgan ish o’rinlari va mahalliy iqtisodiyotda qoladigan daromad kabi ko’rstakichlarni birgalikda tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Mavjud manbaalar shuni ko’rsatadiki, hunarmandchilik turizmini rivojlantirishda madaniy merosni asrash, mahalliy ishlab chiquvchilarni turistik xizmatlar tizimiga jalb qilish va hududiy iqtisodiy faollikni oshirish muhim yo’nalishlar hisoblanadi. Mazkur maqolada aynan shu jihatlarga e’tibor qaratilib,hunarmandchilik turizmining hududiy iqtisodiyotga ta’sirini baholash va istiqbolli rivojlanish yo’nalishlarini belgilash nazarda tutiladi

Metodologiya. Mazkur maqolada Farg’ona vodiysida hunarmandchilik turizmnini rivojlantirishning hududiy iqtisodiy samaradorligini baholash maqsadida tizimli tahlil, qisyosiy tahlil, iqtisodiy tahlil va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Maqola doirasida Marg’ilon, Rishton va Qo’qon shaharlarining hunarmandchilik salohiyati hamda ularni turistik xizmatlar bilan integratsiyalash imkoniyatlari o’rganildi. Hududiy iqtisodiy samaradorlikni baholashda turistlar soni, hunarmandchilik mahsulotlari savdosi, xizmatlardan tushadigan daromad,bandlik va mahalliy iqtisodiyotga qo’shiladigan hissa kabi ko’rsatkichlar asos qilib olindi.Shuningdek, ilmiy adabiyotlar va xalqaro metodik manbaalar tahlili orqali hunarmandchilik turizminin rivojlantirishning istiqbolli yo’nalishlari belgilandi.

Muhokama va natijalar. Farg’ona vodiysida hunarmandchilik turizmini rivojlantirishning hududiy iqtisodiy samaradorligini baholashda turizm oqimining o’sishi, hududning hunarmandchilik salohiyati va turistik xizmatlardan olinadigan iqtisodiy natijalarni birgalikda o’rganish muhim ahamiyatga ega. O’zbekistonda xalqaro turizm hajmining ortib borishin hududlarda yangi turistik mahsulotlarni shakllantirish, jumladan hunarmandchilikka asoslangan sayohatlarni rivojlantirish uchun imkoniyat yaratmoqda.

O’zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo’mitasining ma’lumotlariga ko’ra, mamlakatga turizm maqsadida kelgan xorijiy fuqorolarning safarlari soni 2023-yilda 6,63 millionni, 2024-yilda 7,96 millionni, 2025-yilda esa 11,68 millionni tashkil etgan[4][11].

Hududiy miqyosda Farg’ona viloyati ham muhim turistik salohiyatga ega. O’zbekiston Milliy axborot agentlining 2024-yilgi 15-oktabrdagi xabarida 2023-yilda Farg’ona viloyatidagi 421 ming nafar turist tashrif buyurgani, 2024-yilning dastlabki to’qqiz oyida esa bu ko’rsatkich 420,2 ming nafargab qayd etilgan. Bu ma’lumotlar hududda turizm oqimini shakllantirish uchun muhim imkoniyatlar mavjudligini ko’rsatadi. Shu bilan birga, ushbu raqamlar Farg’ona viloyatiga tegishli bo’lib, Andijon va Namangan viloyatlarini ham qamrab oladigan butun Farg’ona vodiysi ko’rsatkichi sifatida talqin qilinmasligi kerak.

[10]BMT Statistika bo‘limi — Turizm statistikasini hisoblash bo‘yicha xalqaro tavsiyalar. https://unstats.un.org/unsd/tourism/methodology.asp

[11] BMT Statistika bo‘limi — Turizm statistikasini hisoblash bo‘yicha xalqaro tavsiyalar. https://unstats.un.org/unsd/tourism/methodology.asp

Hunarmandchilik salohiyatini turistik xizmatga aylantirish jarayonida iqtisodiy natijalarni aniq o’lchash zarurati bilan belgilanadi. Hunarmandlar soni yoki hunarmandchilik markazining mavjudligi turizmning iqtisodiy samaradorligini isbotlamaydi.Buning uchun turistlar oqimi,xizmatlardan foydalanish darajasi,o’rtacha xarajat hunarmand daromadi,ish o’rinlari va mahalliy yetkazib beruvchilar bilan aloqalar haqida alohida ma’lumotlar kerak.

Farg’ona vodiysida hunarmandchilik turizmini rivojlantirishning hududiy konseptual model va indikatorlar tizimini taklif qilish. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilanadi: hunarmandchilik turizmining iqtisodiy mazmunini ochib berish; mavjud ilmiy yondashuvlarlarni tahlil qilish;vodiyning hunarmandchilik bazasini ochiq statistic ma’lumotlar asosida tavsiflash,iqtisodiy natijalarini o’lchash ko’rsatkichlarni taklif qilish. Farg’ona vodiysida hunarmandchilikni turistik xizmatlar bilan bog’lash hududiy iqtisodiy samara yaratishi mumkin bo’lgan qaysi mexanizmlar orqali amalga oshadi va ushbu samarani qanday ko’rsatkichlar bilan baholash mumkin?

Hunarmandchilik turizmi bo’yicha ilmiy yondashuvlarda hunarmandchilik buyumlari moddiy mahsulot bo’lish bilan birga mahalliy bilim,texnologiya,tarix va madaniy xotirani namoyon etuvchi tajriba sifatida ham qaraladi.Turist ustaxonani ko’rish hunarmand bilan muloqot qilishi yoki mahsulot tayyorlsh jarayonida ishtirok etishi orqali oddiy xaridan ko’ra kengroq xizmatni iste’mol qiladi.Bunday yondashuv mahsulot va xizmatni birlashtirish,turist tajribasini farqlash hamda mahalliy ishlab chiqaruvchining bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin. Boyturaev va Yoqubjonova Farg’ona vodiysida hunarmandchilik turizmining holati,mavjud muammolari va uni rivojlantirish yo’nalishlari tahlil qilgan[2]. Ushbu ishi mazkur hududda hunarmandchilik turizmi masalasi avval ham ilmiy e’tiborda bo’lganini ko’rsatadi.Shu sababli hozirgi maqola umumiy targ’ibot tavsiyalarini takrorlash bilan cheklanmaydi; u iqtisodiy samarani qanday aniqlash va o’lchash mumkinligiga e’tibor qaratadi.

UNESCOning O’zbekiston bo’yicha nomoddiy madaniy meros ma’lumotlari an’anaviy hunarmandchilikning madaniy ahmamiyati va uni avlodlararo uzatish masalasini asoslashga yordam beradi[5][12]. Biroq madaniy merosning xalqaro etirofi turistlarsni yoki mahalliy daromad avtomatik ravishda ortishini anglatmaydi. Madaniy resursning iqtisodiy qiymatga aylanishi uchuin transport,axborot,gidlik,bronlash tashrif buyurish tartibi,xizmat sifati va sotuv kanallari kabi qo’shimcha shartlar muhim. Mavjud manbaalar tahlili uchta bo’shliqni ko’rsatadi.Birinchidan hunarmandchilik turizmi haqida tavsifiy materiallar mavjud bo’lsada, hududiy iqtisodiy samarani o’lchash uchun indikatorlar to’plami alohida asoslanishi kerak. Ikkinchidan, hunarmandlar soni kabi taklif ko’rsatkichlari turist xarajatlari va hunarmand daromadi bilan bir xil emas.Uchinchidan,Marg’lon, Rishton va Qo’qon kabi markazlarni yagona mashrutga birlashtirish g’oyasi xizmatlar zanjiri va daromadning mahalliy taqsimlanishi nuqtayi nazaridan tekshirilishi lozim.Ushbu maqola shu masalalar bo’yicha konseptual yondashuv taklif qiladi. Tadqiqot desk-research harakteriga ega: u ochiq e’lon qilingan statistic ma’lumotlar,ilmiy maqolalar va madaniy merosga oid rasmiy manbaalar tahliliga asoslanadi. Maqolada yangi so’rovnoma o’tkazilgani yoki

[12]UNESCO — Marg‘ilon atlas va adras hunarmandchiligi, hunarmandlar va an’anaviy ishlab chiqarish tajribasi. https://ich.uz/en/ich-of-uzbekistan/elements-included/498-mcdc

hunarmandlar daromadi bo’yicha birlamchi ma’lumotlar yig’ilgani davo qilinmaydi.Shu boid natijalar amaldagi iqtisodiy samarani miqdoriy hisoblash emas,balki uni baholash modeli va keyingi empiric tekshiruv uchun ko’rsatkichlarni ishlab chiqish sifatida talqin etiladi.

Birinchi usul-hujjat va adabiyotlar tahlili. U hunarmandchilik turizmi,nomoddiy madaniy meros va hududiy turizm o’rtasidagi nazariy,nomoddiy madaniy meros va hududiy turizm o’rtasidagi nazariy aloqalarni aniqlash uchun qo’llaniladi.Ikinchi usul-hududiy-qiyosiy tahlil.O’zbekiston Milliy statistika qo’mitasining 2026-yil 1-aprel holatidagi hunarmandlar soni bo’yicha ma’lumotlari Farg’ona, Andijon va Namangan viloyatlari kesimida solishtirildi[6][13]. Uchinchi usul-tizimli yondashuv va konseptual modellashtirish. U hunarmandchilik resursi turistik xizmatga,xizmat esa iqtisodiy natijaga aylanishining bosqichlarini tartibga solish uchun ishlatiladi. Taklif etilayotgan samaradorlikni baholash tizimi quyidagi indikatorlarni o’z ichiga oladi:

1. Hunarmandchilik obyektlariga tashriflar soni;
2.Tashrif buyurgan turistlarlarning pullik xizmatlardan foydalanish ulushi;
3.Bir turistning hunarmandchilikka oid o’rtacha xarajati;
4.Ustaxonalarning turistik xizmatlardan olgan tushumi;
5.Turist xarajatlarining mahalliy yetkazib beruvchilar va xodimlar daromadiga aylangan qismi;
6.Yaratilgan yoki saqlab qolingan ish o’rinlari;
7.Mavsumdan tashqari davrda xizmat ko’rsatish davomiyligi.

Agar zarur ma’lumotlar mavjud bo‘lsa, hunarmandchilik turizmidan tushgan bevosita daromad quyidagi sodda ko‘rsatkich bilan hisoblanishi mumkin:

$$\mathbf{D = \Sigma(N_i \times P_i),}$$

Formulada: N_i — i-turdagi xizmat yoki mahsulot xaridlarining soni,

P_i — shu xizmat yoki mahsulotning o‘rtacha sotuv narxi.

Bir turistga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha xarajat esa X = D / V ko‘rinishida hisoblanadi;

V — tegishli davrda xizmatlardan foydalangan turistlar soni.

Bu formulalar mahalliy tushumni baholaydi, lekin sof foyda yoki hududda qolgan qo‘shilgan qiymatni aniqlash uchun xarajatlar va tashqi yetkazib beruvchilarga ketgan mablag‘lar ham hisobga olinishi kerak.O‘zbekiston Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotiga ko‘ra, 2026-yil 1-aprel holatida mamlakatda 22 670 nafar hunarmand faoliyat yuritgan. Shundan Farg‘ona viloyatida 2 702, Andijon viloyatida 2 108 va Namangan viloyatida 2 030 nafar hunarmand qayd etilgan[14.] Ushbu uch viloyat bo‘yicha jamlangan ko‘rsatkich 6 840 nafarni tashkil qiladi. Bu raqamlar hunarmandchilik faoliyatining vodiyda sezilarli ishlab chiqarish bazasi mavjudligini ko‘rsatadi.

[13] O‘zbekiston Milliy axborot agentligi (O‘zA) — Farg‘ona viloyatining turistik salohiyati va turistlar soni. https://uza.uz/oz/posts/fargonaning-turistik-salohiyati-bbc-nigohida-video_645348

[14] O‘zbekiston Milliy axborot agentligi (O‘zA) — Farg‘ona viloyatining turistik salohiyati va turistlar soni. https://uza.uz/oz/posts/fargonaning-turistik-salohiyati-bbc-nigohida-video_645348

Marg’ilon-Rishton-Qo’qon yo’nalishi hunarmandchilik turizmi uchun konseptual mashrut sifatida ko’rib chiqilishi mumkin.Uning iqtisodiy natijasi uch shartga bog’liq: birinchidan transport va tashrif vaqtlarini muvofiqlashtirish; ikkinchidan,har bir manzilda oldindan kelishilgan, narxi va davomiyligi aniq xizmatlarni taklif etish; uchinchidan, turistik paketdan tushgan daromadning mahalliy hunarmandlar va xizmat ko’rsatuvchilarga qanday taqsimlanishini hisobga olish. Mashrutning iqtisodiy samaradorligi uni tashkil etish xarajatlari bilan tiushumlarini solishtirish orqali baholanishi mumkin. Mashrutning minimal xizmat paketi quyidagilarni o’z ichiga olishi mumkin: 30-90daqiqalik mahorat darsi; mahalliy hunarmand mahsulotlari kataligi; gid yoki tarjimon xizmati;electron to’lov va yetkazib berish imkoniyati; tashrifdan keyin mahsulotni qayta buyurtma qilish kanali. Xizmatlarning narxi, turistlarning soniva mavsumiy talabi tadqiqot qilinmaguncha kutilayotgan daromad yoki rentabellik bo’yicha aniq raqam berish asosli bo’lmaydi.

Natijalar hunarmandchilik turizmini hududiy iqtisodiy rivojlanish bilan bog’lash uchun ishlab chiqarish bazasi, turistik xizmatlar va o’lchash mexanizmini birgalikda ko’rish zarurligini bildiradi. Rasmiy statistikadagi hunarmandlar soni taklif salohiyatini ko’rsatadi lekin turizm bilan bog’langan faol hunarmandlar ulushi,turist xarajatlari yoki xizmatlardan olingan tushum haqida ma’lumot bermaydi. Shu sababli iqtisodiy samaradorlik to’g’risidagi xulosa faqat hunarmandlar soniga asoslanmasligi lozim

XULOSA. Farg’ona vodiysida hunarmandchilik turizmini rivojlantirish uchun hududdagi mavjud hunarmandchilik an’analarini sayyohlar uchun jozibador turistik xizmatlar bilan uyg’unlashtirish zarur. Marg’ilonning adras atlas matolari,rishtonning kulolchilik mahsulotlari hamda Qo’qonning an’anaviy hunarmandchilik yo’nalishlari asosida yagona turistik mashrutlarni tashkil etish sayyohlarning bir nechta hududga tashrif buyurishga va mahalliy mahsulotlarga bo’lgan talabning oshishiga yordam beradi. Bunda hunarmandlarning ustaxonalarini turistik yo’nalishlarga kiritish, tashrif buyuruvchilar uchun amaliy mahorat darslari va hunarmandlar bilan bevosita muloqot qilish imkoniyatlarini yaratish maqsadga muvofiq. Shuningdek, hunarmandchilik mahsulotlarini internet orqali sotish, ijtimoiy tarmoqlarda targ’ib qilish,ma’lumotlarni bir nechta tilde taqdim etishga e’tibor qaratish lozim. Hunarmandlar va turistik tashkilotlar o’rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish,kichik biznes subyektlarini qo’llab-quvvatlash hamda yoshlarni an’anaviy kasblarga o’rgatish orqali ushbu yo’nalishda yangi ish o’rinlarini yaratish mumkin. Shu bilan birga amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning natijasini aniqlash uchun sayyohlar soni,ularning o’rtacha xarajatlari,hunarmandchilik mahsulotlari savdosimva mahalliy aholi bandligidagi o’zgarishlarni muntazam o’rganib boorish tavsiya etiladi. Mazkur ko’rsatkichlar hududlar kesimida tahlil qilinsa,qaysi turistik xizmatlar ko’proq iqtisodiy samara berayotganini aniqlash va mavjud mablag’lardan oqilona foydalanish imkoniyati oshadi. Umuman olganda,hunarmandchilik turizmini rivojlantirishda faqat sayyohlar oqimini ko’paytirishga emas, balki turizmdan olinadigan daromadning mahalliy hunarmandlar va tadbirkorlar faoliyatiga ta’sirini kuchaytirishga ham e’tibor qaratish kerak.

Yana bir e’tiborga arziydigan holat, meni kuzatishalarim davomida turistlarni nafaqat hunarmandchilik mahsulotlari balki,ularning tayyorlanish jarayonlari ham o’ziga jalb qilib kelmoqda. Masalan,atlas nadras ishlab chiqarishning boshidan to yakuniga qadar bo’lgan jarayon

turitlarni eng ko’p qiziqishini uyg’otyapti desam hech adashmagan bo’laman. Rishtondagi kulolllarimizning mehnati ham huddi shunday. Xulosa, biz nafaqat hunarmandchilik mahsulotlarini dunyoga tanitish orqali iqtisodimizga foyda keltirishimiz mumkin balki,hunarmandchilikni har bir detail orqali turistlarni jalb qilishimiz lozim. Biz bu dastgohlar va undan foydalana oladigan hunarmandlarni hunarini o’rganishimiz va qaysidir ma’noda bularni asrab qolishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi — O‘zbekistonga kelgan xorijiy turistlar statistikasi.https://stat.uz/
2. O‘zbekiston Milliy axborot agentligi (O‘zA) — Farg‘ona viloyatining turistik salohiyati va turistlar soni. https://uza.uz/oz/posts/fargonaning-turistik-salohiyati-bbc-nigohida-video_645348
3. UNESCO — Marg‘ilon atlas va adras hunarmandchiligi, hunarmandlar va an’anaviy ishlab chiqarish tajribasi. https://ich.uz/en/ich-of-uzbekistan/elements-included/498-mcdc
4. O‘zbekistonning rasmiy turizm portali — Marg‘ilon hunarmandchilik markazlari. https://uzbekistan.travel/en/o/margilan-craft-centers/
5. UN Tourism — Turizmning iqtisodiy va barqarorlik ko‘rsatkichlarini baholash metodologiyasi. https://www.untourism.int/tourism-statistics/measuring-sustainability-tourism
6. BMT Statistika bo‘limi — Turizm statistikasini hisoblash bo‘yicha xalqaro tavsiyalar. https://unstats.un.org/unsd/tourism/methodology.asp
7. Boyturayev O. va Yoqubjonova H. — Farg‘ona vodiysida hunarmandchilik turizmini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy maqola (PDF). https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/48_Boyturayev_Yoqubjonova.pdf

© Turon universiteti Andijon filiali | Iqtisodiyot va moliya kafedrasi
© “Smart Quill Publishing” nashriyoti | Smartquillpublishing.uz